

INGLIZ TILINING CHUQUR O'RGATILISHI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RIVOJLANISHIGA QO'SHISHI MUMKIN BO'LGAN HISSASI VA GLOBALIZATSIYA

Jabborov Ilyosjon
Angren universiteti
katta o'qituvchisi

Abstark: Dunyo xalqlari yorug' kelajak uchun olg'a intilar ekan albatta dunyo hamjamiyati bilan integratsiya qilish sari undaladi. Butun jahondagi xalqlar bilan iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya yoki savdo aloqalari o'rnatish albatta bitta lingua frankani talab qiladi. Bu lingua frankani yaxshi o'zlashtirgan xalqlarga esa savdo sotiq ishlarini olib borish osonlashadi. Bir qancha davlatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Globalizatsiya esa bunda qochib bo'lmas faktorga aylanadi. O'z o'zini qobig'iga o'ralib olish tarixdan ma'lumki hech qaysi davlatni rivojiga hissa qo'shmagan. Quyidagi maqola O'zbekistonda ingliz tiliga berilayotgan e'tibor hamda uning O'zbekiston hamjamiyatiga foydali taraflari hamda ekspertlar fikrlari.

Kalit so'zlar: Lingua franka, savdo aloqalari, rivojlanish, faktor, aloqa, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, o'quv markazlari, YAIM, rus tili.

Tadqiqot metodologiyasi: ushbu maqola aralash turdagi maqola hisoblanib unda qiyosiy metodologik usul hamda tahliliy analizga tayanadi

Ingliz tilining O'zbekistondagi tarixi haqida qisqacha: Ingliz tilining umum o'rta ta'lim maktablarida o'qitish sovet davrining eng erta kunlariga ya'ni 1924 yillarga borib taqaladi. Jadidlar davrida umumiy ta'limga e'tibor berilgan bo'lsa ham chet tilini o'qitish ularni eng oliy vazifasi emas edi. Ularda avvalo yangi tartibdagi o'quv ishlarini yo'lga qo'yish oliy maqsad edi. 1932-yildan Sovetlar hukumatga mustahkam o'rinishib olgach ta'lim tizimini ham isloh qilish kerak edi va ular Rossiyada o'qitilib kelingan fanlarni ham Markaziy Osiyoga olib kirishdi va Ingliz tilini Markaziy Osiyoda chet tili sifatida o'qitish 5-sinflardan boshlab o'qitila boshlandi. Va 1950-yillarga kelib Ingliz tili juda sifatli darajada dars berish boshlandi. Ayniqsa oliy ta'lim dargohlarida yetarli salohiyatga ega

kadrlar tayyorlandi. Bu esa aynan Sovet davlatining cho'qqiga yaqinlashyotgan davrga to'g'ri keldi. Bu holat poytaxt va uni atrofida yaxshi bo'lgan esada rus tilidan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi kam ahamiyatga ega bo'lgan xorijiy til sifatida o'qitilib kelingan. 1991-yilgacha O'zbekiston mustaqil bo'lgan davrgacha kattagina maktabga asos solingan bo'lishiga qaramay bu davlat darajasida katta ahamiyatga ega deb hisoblanmagan. 1997-yildan boshlab Ingliz tiliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Bu esa ta'limga oid qonun va kadrlar tayyorlashni milliy dasturida alohida ahamiyat berildi. Yillar davomida Ingliz tilini o'qitish 5-sinfdan bo'lib keldi va umumiy ta'limni ahvoli yomon edi. Ko'pgina maktablar qurildi va kollejlarga e'tibor berildi ammo ingliz tilini o'qitish va o'qish cho'qqiga chiqmadi. 2010-yillardan texnologiya va internetning rivojlanishi, o'z o'zidan globalizatsiyadan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Globalizatsiya va chet el bilan aloqalarning kuchayishi abuturientlarning o'zga davlatlarga o'qishga borish hohishini kuchaytirib yubordi. Natijada ingliz tili va boshqa chet tillarning o'qitadigan o'quv markazlari dunyoga kela boshladi. O'quv markazlarida til o'rganib chet elga ketgan talabalar chet tilini o'rganishga bo'lgan katta portlashni vujudga keltirishdi. 2012 yilda esa chet tillarni hususan "Ingliz tilini o'rganish sifatini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi qonun" orqali 1-sinfdan Ingliz tilini o'qitishni yo'lga qo'yishga qaror chiqarildi¹. Bu esa o'z o'rnida iqtisodiy o'sishga o'z hissasini qo'shadigan qaror edi. O'quv markazlarida ishlovchi o'qituvchilar ham iqtisodiy faravonlikka 2017 yillardan erisha boshlashdi. 2017-yillarda YAIM 86 milliard dollar bo'lgan bo'lsa 2025-yilgacha O'zbekiston YAIM 140 milliard dollarga yetdi. Bunga faqatgina eksport va import o'sishi orqali emas balkim xalqaro munosabatlarni o'sishi va qo'shni va chet el davlatlari bilan yaxshi aloqalar katta ro'l o'ynadi. Bu munosabatlar esa Ingliz va rus tillari orqali yo'lga qo'yildi va Ingliz tilini yetuk darajada biladigan avlod yetishib chiqdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 30 dan ziyod

¹ Dilia Hasanova, *Writing, Research and Discourse Studies* (WRDS), The University of British Columbia, 1874 East Mall, Vancouver, BC, V6T 1Z4, Canada, E-mail: diliahasanova@yahoo.com

9 IELTS sertifikatini qo'lga kiritgan insonlar bor². Taqqoslaganda IELTS 9 olgan insonlar Qozog'istonda 6 nafar³. Bu Ko'rsatkichning o'zigina oxirgi yillarda O'zbekistonda Ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor berilyotganining na'munasi. Ayniqsa o'quv markazlarida Ingliz tili o'qituvchilari 3 ming dollargacha oylik maosh olayotgani insonlarni ingliz tilini yanada chuqur o'rganishga turtki bo'lyapti. El yurt umidi orqali dunyoning top 100 yoki top 300 universitetlarga kirgan talabalarning, kontrakti, sug'urtasi va aviabileti to'lab berilayotgani o'rganuvchilarga kamida 7 ballni qo'lga kiritishga undayapti.

O'zbekiston rivojidagi ro'l: xalqaro savdo va investitsiyalar. Xalqaro savdoning rivojlanishi muzokaralarning faol borishiga bog'liq jarayon bo'lib unda Ingliz tilida ravon gapirish va iqtisodiy sheriklarni bunga ko'ndira olishda muhim ro'l o'ynaydi. Muzokara olib borish har doim o'ta murakkab jarayon bo'lin unda insondan katta aql zakovat, uddaburonlik va tilda o'z fikrini ravon bildirish muhim.

Turizm rivojlanishi: O'zbekiston brendini xalqaro miqyosda ko'rsata olish bu albatta birinchi o'rinda Ingliz tilini bilishga bog'liq. Mamlakatimizning boy ma'daniy va ma'naviy tarixini ko'rsata olish turistlarni jalb qilishga yordam beradi va ular O'zbekistonda bo'lishni qulay deb hisoblashadi. Kelayotgan mehmon kelganda qiynalmay mehmonxona topish va ovqatlanish joylarida qaysi ovqat ularga mos kelishini bilishi ularga keyingi safar ham mamlakatga kelishiga o'zak vazifasini bajaradi.

IT va texnologiya sektorlari: Ishsizlik dunyo bo'yicha eng katta muammolardan biri. Bu esa albatta texnologiyalarni yaxshi tushunishga bog'liq. Hozirgi kunda dasturlashdan yaxshi xabardor inson ishsiz qolib ketishini tasavvur qilish qiyin. Katta katta korporatsiyalarning head hunter ya'ni talantli yoshlarni topish va ularga o'z kompaniyasiga jalb etish bilan band. Dasturlash va texnologiyalarni o'rganish esa Ingliz tilini yaxshigina

² <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/25/ielts/>

³ <https://tengrinews.kz/newseducation/kazakhstanamirovovoyrekordvajnoznatielts2025godu-562093/#:~:text=%D0%A2%D0%B0%D0%BA%D0%B6%D0%B5%20%D0%B2%20%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B7%D0%B0%D1%86%D0%B8%D0%B8%20%D0%BD%D0%B0%D0%BC%20%D1%81%D0%BE%D0%BE%D0%B1%D1%89%D0%B8%D0%BB%D0%B8,%D0%BC%D0%B0%D0%BA%D1%81%D0%B8%D0%BC%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D0%BE%D0%B3%D0%BE%20%D0%B1%D0%B0%D0%BB%D0%BB%D0%B0%20%D0%B2%20%D0%9A%D0%B0%D0%B7%D0%B0%D1%85%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B5%22.>

o'zlashtirishni talab qiladi. Bunday imkoniyat esa hozirgi yoshlarni o'z qo'lida. Atrof to'la o'quv markazlari va universitetlar bunday imkoniyatdan foydalanmay bekor yurgan yoshlarni esa bermalol uquvsizga chiqarish mumkin.

Xulosa: O'zbekistonda ingliz tilini o'rgatish va o'rganish salkam 100 yillik tarixga ega ekan, O'zbek xalqini rivojida va ma'naviy o'sishida tilarni bilish alohida o'ringa ega. Busiz mamlakatimiz bugungi kundagi yutuqlarga ega bo'lmagan va balkim hozirgidek 7 millionlik turistlarni qabul qilmagan bo'lar edi. Chet elldarda O'zbekistonni ravon ingliz tilida targ'ib qilayotgan yoshlarimizga alohida hurmat bildirgan holda Ilyos Jabborov.

References

1. Dilia Hasanova, Writing, Research and Discourse Studies (WRDS), The University of British Columbia, 1874 East Mall, Vancouver, BC, V6T 1Z4, Canada, E-mail: diliahasanova@yahoo.com
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/10/25/ielts/>
3. <https://tengrinews.kz/newseducation/kazahstana-mirovoy-rekord-vajno-znat-ielts-2025-godu->